



# SENSOR ALALIYALI BOLALARING PSIXOLOGIK-PEDOGOGIK VA NUTQIY XUSUSIYATLARI.

Utbasarova Umida Mexmanovna

Alfraganus Universiteti oliv ta'lim tashkiloti

Pedagogika va Psixologiya PhD v.b dotsent

Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Alfraganus Universiteti Pedagogika va

Psixologiya fakulteti, Defektalogiya yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sensor alalik bolalarning pedagogik - psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar ketirilgan. Shu bilan birga sensor alalik bolalarning nutqiy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Ushbu maqola mutaxassislarga hamda ota-onalarga foydali bo'lishi mumkun.

**Kalit so'zlar:** Sensor alaliya, psixologik-pedogagik, semantik, fonematik, diqqat, afaziya, akustik, agnoziya, morfologik, emotsiyal, reaksiya, idrok.

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о педагогико-психологических особенностях детей с сенсорной алалией. Также рассматриваются особенности речи детей с сенсорной алалией. Эта статья может быть полезна специалистам и родителям.

**Ключевые слова:** Сенсорная алалия, педагогико-психологический, семантический, фонематический, внимание, афазия, акустический, агнозия, морфологический, эмоциональный, реакция, восприятие.

**Abstract:** This article provides information about the pedagogical and psychological characteristics of children with sensory alalia. The speech patterns of



children with sensory alalia are also considered. This article may be useful for specialists and parents.

**Key words:** Sensory alalia, pedagogical-psychological, semantic, phonemic, attention, aphasia, acoustic, agnosia, morphological, emotional, reaction, perception.

### Kirish:

Sensor alaliya— bu bolalarda sezgi organlari (ko'rish, eshitish, teri taktil) sezgilar bilan bog'liq muammolar mavjud bo'ladi. Bu muammolar turli darajalarda bo'ladi, lekin ularning barcha holatlarida bolalar o'zlarini ijtimoiy va pedagogik jihatdan rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

V.K.Orfinskaya, N.N.Traugott va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida sensor alaliyada fonemalarni farqlashda, fonematik tahlil va so'zlarning morfologik tarkibini tahlil qilishlar zarar ko'rigani haqida fikrlar bildirishgan. Aynan shu sabab mazkur buzilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

V. K. Orfinskaya (1963), N. I. Jinkin (1972) nutqni idrok etish saqlanib qolgan, ammo uni tushunish buzilgan alohida semantik alaliyani ajratib ko'rsatgnlar.

V. K. Orfinskaya sensor buzilishlarini turlarini ajratib ko'rsatgan, ko'pincha ayrim tovushlarni yoki tovush qatorlarini farqlashda buzilishlar, tovushlar va ularning birikmalarini farqlashda nisbiy imkoniyati bo'lgani holda so'zdagi tovushlar ketma-ketligini idrok qilishning buzilishi uchrashini aytishgan.

S. S. Mnuxin bolalardagi sensor-afaziya buzilishlarning har xil turlarini ajratib ko'rsatgan: sensor afaziya (afaziya va alaliyani farqlamaydi), akustik agnoziya (tovushni ajralib olish, tovushni tanimay qolish), akustik ko'rsatmalarning buzilishi (tovush qo'zg'atuvchilariga e'tibor bermaslik), akustik ko'rsatmalarning buzilishi va akustik agnoziyaning kombinatsiyasi hisoblanadi. Buzilishning xarakteridan qat'i nazar, bunday hollarda tushunishning u yoki bu darajada buzilishlarini ko'rish mumkin.

Nutq-eshitish analizatorining rivojlanmaganlik darjasini nutq-harakat analizatorining rivojlanmaganlik darjasini kabi turlicha bo'ladi, shuning uchun ham tushunishdagi kamchiliklarning namoyon bo'lishi mumkin. Qo'polroq hollarda bola atrofdagilarning nutqini umuman tushunmaydi, unga ma'nosiz shovqin sifatida qaraydi, hatto o'z ismiga ham reaksiya bo'lmaydi, nutqiy tovushlarini nutqsiz tovushlarni shovqinlardan farqlamaydi, har qanday nutqiy va nutsiz tovushli qo'zg'atuvchilarga befaarq bo'ladi. Ayrim hollarda bolalar ayrim kundalik so'zlarni tushunadilar, ammo kengaytirilgan nutq fonida ularning ma'nosini yo'qotib qoyadilar. Ba'zan alohida so'zlarni tushunish bolaga iboraning ma'nosini tushunishdan ko'ra ko'proq qiyinchilik tug'diradi.

Sensor alaliya tashxisi bo'lgan bolalar uchun vaziyat muhim ahamiyatga ega. Ular ko'pincha gaplarning mazmunini ma'lum bir kontekstdagina tushunadilar. Shakllar va so'z tartibi o'zgarganda ma'noni tushunishga qiyinaladilar, grammatik tuzilmalarning ma'nosini idrok etishda muomollar bo'lishi mumkin. Bir qator hollarda bolalar biroz murakkablashtirilgan topshiriqlarni tushunmaydilar, noto'g'ri aytilganlarni to'g'ri shakillaridan ajrata olmaydilar. Ayrim hollarda gapisish sur'ati o'zgarganda nutqni tushunmaydilar, bir xil urg'uli-bo'g'inli tuzilishga ega bo'lgan so'zlarni chalkashtiradilar, tovush jihatdan yaqin bo'lgan so'zlarni bir xil deb qabul qiladilar.

Sensor alalik bolalar ba'zi hollarda o'zlariga qaratilgan nutqni takrorlashni so'raydilar va faqat bir necha marta aytilgan narsani tushunishlari mumkin, chunki bir martalik qo'zg'atuvchi idrok etish uchun yetarli bo'lmaydi. Eshitish qo'zg'atuvchisi mustahkamlanib nutq takrorlansa idrok qilish jarayoni onsonlashadi. Diqqatni davomiyligi, ko'chirish va taqsimlashdagi qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Bola o'ziga qaratilgan nutqni darrov idrok qila olmaydi, tashqi qo'zg'atuvchilarsiz ham chalg'iyveradi. Bunda ko'rish analizatori tomonidan eshitish taassurotini mustahkamlash - yuzdan o'qish hisobiga tushunish yaxshilanishi kuzatiladi; idrokka ko'rish ta'sirlanishini kiritish akustik taassurotlarni kuchaytiradi.

Sensor alalik bolalar rivojlanishining barcha bosqichlarida unda eshitish diqqatini va idrokinining o'zgarib turishi kuzatiladi. Diqqatni jalg' qilish va jamlash, uning barqarorligi va taqsimlanishida qiyinchiliklar bo'lishi mumkin, chalg'ishning kuchayishi, holdan toyish, diqqatning qisqa mudatligi kuzatiladi. Bola faqat - onasini, pedagogni tushunadi va boshqa odanlarning gapini tushunmaydi. Bunda tovushlarga reaksiya tovush balandligiga bog'liq bo'lmaydi.

- **Psixologik-pedagogik xususiyatlar:**

- Sensor alalik bolalarda sezgi organlarining zaifligi kuzatiladi. Ko'rish yoki eshitish organlarida uchraydiga muammolar bolalarning atrof olamni to'liq anglashiga to'sqinlik qiladi.
- Sensor alalik bolalar ko'pincha o'qish, o'rganish yoki atrofdagi voqealarni yodda saqlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularda xotira va diqqatning zaifligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.
- Sensor alalik bolalar yangi vaziyatlarga tezda moslashishda, va jismoniy harakatlarni to'g'ri bajarishda qiynaladilar.
- Sensor alalik bolalarda kommunikatsiya muammolari bo'lishi mumkin, bu holda nutq va til rivojlanishi sekinlashadi. Bunday bolalar o'z fikrlarini ifodalashda qiynaladilar.
- Sensor alalik bolalarda emotsiyonal holatlar hissiyotlari ko'pincha o'zgaruvchan bo'ladi. Bunday bolalar ko'pincha qo'rquv, bezovtalik yoki ishonchsizlikni duch keladilar.

- **Nutqiy xususiyatlar:**

- Sensor alalik bolalar ko'pincha nutqni kechikishini kuzatishimiz mumkin. Sensor alalik bolalar tovushlarini aniq talaffuz qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar.
- Sensor alalik bolalarda ko'p hollarda tovushlarni noto'g'ri eshitish natijasida talaffuzda xatolar bo'ladi.

- Nutq rivojlanishidagi kechikish sababli bolalarda so'z boyligining kam bo'lishiga olib keladi, bu esa bolaning o'z fikrlarini to'liq va aniq ifodalashiga to'sqinlik qiladi.

- Sensor alalik bolalar o'zaro muloqotda, jumlalarni tuzishda va yangi so'zlarni o'rghanishda muomolarga uchaydilar.

### Xulloса:

Xulloса qib shuni aytsak bo'ladiki, sensor alaliya murakkab va ko'p jihatdan bir -biri bilan bog'liq holatdir. . Sensor alalik bolalarda psixologik va pedagogik xususiyatlар o'ziga xosdir. Ular ko'pincha diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash va kognitiv jarayonlarda qiyinchiliklarga duch kelashlari mumkin. Shu bilan birga, bolalar o'z hissiy va ijtimoiy rivojlanishida ham ba'zi cheklovlarga ega bo'lishi mumkin, chunki ular o'z holatlarini boshqarishda va ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar.

### Foydalanilgan adabyotlar:

1. Levina R.E. Gapirmaydigan alalik bolalarni o'rghanish tajribasi. – M., 1951 yil
2. Sobotovich E.F. Bolalarda nutqning kam rivojlanganligi va uni tuzatish usullari (aql-idrok va vosita alaliyasi buzilgan bolalar). M.: Klassik uslub, 2003 yil.
3. Cherepkova N.V. Maktabgacha yoshdagи bolalarda nutqni shakllantirish xususiyatlari.Jurnal «Ilmiy kashfiyotlar olamida»2010
4. Logopediya (L. Mo'minova, M. Ayupova). — T., 1993.
5. L.S. Volkova KORREKSION PEDAGOGIKA (MOSKVA2006)
6. Isayeva M.A. Utbasarova U.M. <https://journal-web.uz/index.php/06/article/download/389/362>